SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## *2021- YIL YANVAR-IYUN*
## *(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat statistikasi
bo‘limi
Tel.: 76 225-65-76

# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2 trln. 642,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,9 % ni tashkil etdi.




mlrd. so‘m




*__B__-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, __C__-Ishlab chiqaradigan sanoat __D__-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, __E__-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




FHI % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 10,3 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 29,0 % ga hamda suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 1,2 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-iyun oylarida, % da)*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Ko‘mir**




**Qattiq tuz**




**Qum**




**Neft**




**Granit**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir,** *ming t.* | 110,1 | 140,8 | 30,7 |
| **Neft,** *ming t.* | 40,0 | 0,0 | -40,0 |
| **Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari),** *ming t.* | 12,9 | 11,4 | -1,5 |
| **Qum,** *ming t.* | 31,6 | 26,5 | -5,1 |
| **Chaqiq tosh,** *ming t.* | 70,9 | 38,3 | -32,6 |
| **Granit, qumtosh va boshqa toshlar,** *ming t.* | 1,2 | 0,4 | -0,8 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 349,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-iyun oylarida, % da)*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,3 % (0,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,6 % (19,7 %) va quyi texnologiyalisi – 65,8 % (67,7 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,9 % (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 125,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,7 % (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 295,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 43,8 % (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,1 % (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 123,4 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 99,8 ming tonna portlandtsement (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 115,3 %), 15,5 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut) (309,8 %), 140,8 ming tonna toshko‘mir (127,9 %), 3,9 ming tonna paxta tviti (lint) (382,6 %), 21,3 ming tonna kalava ip (123,7 %), 22,8 ming tonna paxta chigiti (100,3 %) ishlab chiqarilib yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Dizel yoqilg‘isi**




**Paxta tolasi**




**Sement**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Sut**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Non**




**Aroq**




**Makaron**




**Tuz**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 13,8 | 13,0 | -0,8 |
| **O‘simlik yog‘I (tozalangan),** *ming t.* | 4,6 | 1,8 | -2,8 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 71,2 | 59,1 | -12,1 |
| **Sement,** *ming t.* | 86,5 | 99,8 | 13,3 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut),** *ming t.* | 5,0 | 15,5 | 10,5 |
| **Dizel yoqilg‘isi,** *ming t.* | 1,8 | 0,03 | -1,77 |

## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-iyun oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 292.6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,7 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 2,9 m.ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 44,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

<u>**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish**</u>

*(yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 158,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 206,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



***FHI % da***




<u>**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**</u>

*(yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 486,3 mlrd. so‘mga tashkil etdi.



***FHI % da***



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyun oylarida)*

***FHI % da***






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 72,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 17,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 154,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,8 % ni, fizik hajm indeksi 13,2 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 997,6 mlrd. so‘mni tashkil etd.



***FHI % da***



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyun oylarida)*




2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 121,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yil-ning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,0 % fizik hajm indeksi 110,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 158,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-iyun oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 222,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqara-digan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 123,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-iyun oylarida)*










2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 88,7 % ni tashkil qilgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,8 % ni, fizik hajm indeksi 87,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 205,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-iyun oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 2,1 m. ga ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 194,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.








## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-iyun oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi – 13,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-iyun oylarida, % da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 37,4 | 85,1 | 47,7 |
| **Elektr energiyasini sotish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 105,8 | 112,2 | 6,4 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar**, *mlrd. so‘m* | 15,9 | 27,3 | 11,4 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming Gkal* | 22,1 | 22,3 | 0,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-iyun oylarida*

mlrd. so‘m







FHI
*% da*

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-iyun oylarida, % da)*

2020- y.







2020- y.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 1,8 | 3,6 | 1,8 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 11,3 | 15,7 | 4,4 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 9,2 | 11,4 | 2,2 |
| **Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo‘qotish uchun ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 5,1 | 4,0 | -1,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 39,8 % ga hamda oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,0 m. ga, shuningdek, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar 23,9 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 990,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,0 % (2020- yil yanvar-iyun oylarida 4,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to‘g‘ri kelib 19,7 % ni, shuningdek, Sho‘rchi tumani 15,0 % ni, Denov tumani 13,7 % ni hamda Jarqo‘rg‘on tumani 10,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (115,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Bandixon (196,7 %), Muzrabot (146,8 %), Jarqo‘rg‘on (145,9 %), Oltinsoy (132,2 %), Termiz (128,6 %), Sho‘rchi (121,8 %), Sariosiyo (118,1 %), Angor (117,3 %) hamda Uzun (115,5 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 990,7 | 100,0 | 115,1 |
| Termiz shahri | 195,5 | 19,7 | 108,8 |
| Angor | 33,5 | 3,4 | 117,3 |
| Bandixon | 5,4 | 0,5 | 196,7 |
| Boysun | 28,6 | 2,9 | 104,7 |
| Denov | 136,1 | 13,7 | 100,5 |
| Jarqo‘rg‘on | 100,0 | 10,1 | 145,9 |
| Qumqo‘rg‘on | 41,1 | 4,2 | 88,1 |
| Qiziriq | 25,9 | 2,6 | 100,2 |
| Muzrabot | 43,0 | 4,4 | 146,8 |
| Oltinsoy | 49,2 | 5,0 | 132,2 |
| Sariosiyo | 55,2 | 5,6 | 118,1 |
| Termiz t. | 43,9 | 4,4 | 128,6 |
| Uzun | 31,8 | 3,2 | 115,5 |
| Sherobod | 52,5 | 5,3 | 107,8 |
| Sho‘rchi | 149,0 | 15,0 | 121,8 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 462,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

## Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | FHI % da |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati * | 2642,1 | 100,0 | 105,6 |
| Termiz shahri | 463,8 | 17,6 | 101,1 |
| Angor | 91,6 | 3,5 | 114,7 |
| Bandixon | 5,5 | 0,2 | 118,0 |
| Boysun | 34,7 | 1,3 | 106,8 |
| Denov | 228,6 | 8,7 | 103,2 |
| Jarqo'rg'on | 482,5 | 18,3 | 104,9 |
| Qumqo'rg'on | 260,1 | 9,8 | 102,6 |
| Qiziriq | 52,1 | 2,0 | 98,8 |
| Muzrabot | 98,5 | 3,7 | 101,8 |
| Oltinsoy | 53,0 | 2,0 | 108,0 |
| Sariosiyo | 270,4 | 10,2 | 109,7 |
| Termiz t. | 114,5 | 4,3 | 107,8 |

* *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | FHI % da |
|---|---|---|
| 45,8 | 1,7 | 105,7 |
| Uzun | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | FHI % da |
|---|---|---|
| 255,8 | 9,7 | 108,0 |
| Sherobod | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | FHI % da |
|---|---|---|
| 185,2 | 7,0 | 90,6 |
| Sho‘rchi | | |

## Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Angor (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,7 %), Bandixon (118,0 %), Sariosiyo (109,7 %), Sherobod (108,0 %), Termiz (107,8 %), Oltinsoy (108,0 %) hamda Uzun (105,7 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Surxondaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng koʻp ulush Jarqoʻrgʻon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 18,3 % i), Sariosiyo (10,2 %), Qumqoʻrgʻon (9,8 %), Sherobod (9,7 %) tumanlari hamda Termiz shahri (17,6 %) hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Bandixon (0,2 %), Boysun (1,3 %), Uzun (1,7 %), Oltinsoy (2,0 %) hamda Qiziriq (2,0 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqoʻrgʻon (2 162,9 ming soʻm), Termiz (1 450,9 ming soʻm), Sherobod (1 289,8 ming soʻm), Sariosiyo (1 262,9 ming soʻm), Qumqoʻrgʻon (1 085,2 ming soʻm) tumanlarida hamda Termiz shahrida (2 513,8 ming soʻm) oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (763,1 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Viloyat boʻyicha aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 367,7 ming soʻm boʻlgani holda, Termiz shahrida – 1 059,4 ming soʻmni, Shoʻrchi tumanida – 696,9 ming soʻmni, Termiz tumanida – 557,0 ming soʻmni hamda Jarqoʻrgʻon tumanida – 448,2 ming soʻmni tashkil etdi.

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 980,6 | 367,7 |
| Termiz shahri | 2513,8 | 1059,4 |
| Angor | 677,6 | 247,8 |
| Bandixon | 71,8 | 70,1 |
| Boysun | 293,9 | 242,7 |
| Denov | 579,7 | 345,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 2162,9 | 448,2 |
| Qumqo‘rg‘on | 1085,2 | 171,7 |
| Qiziriq | 445,9 | 221,5 |
| Muzrabot | 680,2 | 296,9 |
| Oltinsoy | 293,0 | 271,9 |
| Sariosiyo | 1262,9 | 257,9 |
| Termiz | 1450,9 | 557,0 |
| Uzun | 262,2 | 181,8 |
| Sherobod | 1289,8 | 264,9 |
| Sho‘rchi | 866,0 | 696,9 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 119,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bandixon, Muzrabot, Uzun va Oltinsoy tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Qiziriq (99,8 %) hamda Boysun (92,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Sherobod (21,3 %), Qumq‘org‘on (22,9 %), Sariosiyo (22,9 %), Jarqo‘rg‘on (32,8 %) hamda Termiz (36,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

<u>**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**</u>

*(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4491 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 830 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,5 % i) Termiz shahriga, 528 tasi (11,8 %) Denov tumaniga, 327 tasi (7,3 %) Sho‘rchi tumaniga, 286 tasi (6,4 %) Termiz tumaniga, 284 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga, 276 tasi (6,1 %) Sherobod tumaniga, 270 tasi (6,0 %) Jarqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 804 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 142 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,7 %) Termiz shahrida, 95 tasi (11,8 %) Denov tumanida, 82 tasi (10,2 %) Sho‘rchi tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (830 ta), Denov (528 ta), Sho‘rchi (327 ta), Termiz (286 ta) hamda Sariosiyo (284 ta) tumanlari qayd etildi.







2021- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon (73 ta), Oltinsoy (184 ta), Qiziriq (185 ta), Muzrabot (233 ta) hamda Angor (246 ta) tumanlari qayd etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’a tlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo‘yicha 34,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 81 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 60,9 % ga kamaygan.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

| | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni,** *birlikda* | 9 | 20 |
| **Korxonalar soni,** *birlikda* | 9 | 20 |
| **Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. so‘m* | 14,6 | 34,9 |
| **Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi,** *mln. AQSh dollari* | 0,02 | 0,02 |
| **Yaratilgan yangi ish o‘rinlari,** *birlikda* | 133 | 81 |